

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

G.Sh.Rixsiyeva

2020 yil “28” 08



“KELISHILDI”

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil “28” 08

Ro'yxatga olindi: № BD-512010C

2020 yil “29” 08

**TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI
FAN DASTURI**

Bilim sohalari:	100000	-Gumanitar soha
	200000	-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohalari:	120000	-Gumanitar fanlar
	230000	-Iqtisod
	210000	-Sotsiologiya va psixologiya
Ta'lim yo'nalishlari:	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha);
	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillari bo'yicha);
	5120200	- Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha);
	5120300	- Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha);
	5120700	- Jahon siyosati (mintaqalar bo'yicha);
	5210800	- Sharq falsafasi va madaniyati;
	5231000	- Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha).

Toshkent – 2020

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "29" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "29" 08 dagi 452 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Haydarova R.A. –TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi
Holiqova Z.M. –TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Shayusupova A.A. –TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dots. p.f.n.
Akkulova S. - Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi katta o'qituvchisi

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil "29" 08 dagi "4" –sonli bayonnoma)

22. www.ziynet.uz
23. www.pedagog.uz
24. www.psychology.uz
25. www.nutq.intal.uz

4. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Asqarova, M. Xayitboev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
5. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, «Fan», -2001. O'quv qo'llanma.
6. Pedagogy and Practice: Teaching and learning in Secondary Schools.
7. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin desan giz... (Tarbiya kitobi). T.:Ma'naviyat, 2013.
8. Вохидова Н.Х., Халикова З.М. Методика воспитательных работ. Учебное пособие.-Т.:ТДПУ, 2016

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: “O'zbekiston”, 2017.
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T.: “O'zbekiston”, 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и просвещающее государство Узбекистан).
11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.: “O'zbekiston”, 2017. - 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа)
12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.–T.: “O'zbekiston”, 2017.-488 b.
13. Батурина Г. И., Кузина Т. Ф. Введение в педагогическую профессию.- М., Академия, 2009.
14. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari: O'quv qo'llanma.-T.: “Tib-Kitob”, 2009.
15. Niyozov G. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.2011
16. Maxkamov U., Tilaboeva N., Tilaboeva SH. Pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma.-T.:2003
17. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: Darslik.- T.: TDPU Toshkent, 2014
18. Muxammadjonova L. Etika va estetika fanlarini o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma.-T.: “Universitet”, 2017
19. Кан- Калик В. А. Учителю о педагогическом общении.- М., 2010.
20. Tarbiya kitobi: ibratli rivoyat va hikmatlar/nashrga tayyorlovchi: Muhammadamin To'xliyev va Abdumurod Tilavov. – T.:Yurist-media markazi, 2015.-376 b.
21. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Педагогическое мастерство: Учебно-методическое пособие.-Т.:ТашГУВ, 2020

Internet saytlari:

I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Tarbiya fanini o'qitish metodikasi” fan dasturi bakalavriat bosqichi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari 3 va 4 kurslar uchun mo'ljallangan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 6 iyundagi 422-son qaroriga asosan tuzilgan.

Mazkur fan kasbiy-pedagogik tayyorgarligi tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. “Tarbiya fanini o'qitish metodikasi” fani bo'lajak mutaxassislari tarbiya fani ilmiy asoslarini o'rganish, pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha zamonaviy tafakkurni tarkib toptirish, o'qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarish, umumiy tayyorgarlik bo'yicha bilimga ega bo'lishadi.

“Tarbiya fanini o'qitish metodikasi” fani “tarbiya” fanining dolzarbligi, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liqligi, didaktik asoslari, diagnostik talablar, “Tarbiya” fani o'qituvchisining kasbiy maxorati kabi mavzularni o'z ichiga olgan. Ushbu fan bo'lg'usi mutaxassisga, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy xajmini, o'qituvchi-murabbiyga xos umumiy, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga asos bo'ladi. Ushbu fan talabaning umumipedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ma'naviy-axloqiy darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak mutaxassis mazkur kursni o'rganish davomida psixologik pedagogik tushunchalar yuzasidan fikr yuritadi hamda ularning mohiyatini tushuna boradi.

Ushbu dolzarb fan - falsafa, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, xuquqshunoslik, mantiq, etika va estetika, ma'naviyat asoslari, tarix, etnografiya, etnomadaniyat, etnopedagogika, o'quv fanlarini o'qitish metodikasi, maktab gigenasi va fiziologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada o'rganiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasida «Tarbiya» fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nau va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini etarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. Yoshlarini ma'nau va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini etarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishdan iborat.

Fanning vazifasi - komil insonni voyaga yetkazishning bir butun xolatdagi muammolarini xal qilish; ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish sharoitida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondoshish; nazariy bilimlarni ta'lim muassasalarining amaliy hayoti bilan bog'lab o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish; rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga doir eng ilg'or tajribalarni bo'lajak o'qituvchilarga chuqurroq o'rgatish va amaliyotda qo'llashni tashkil etish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talaba:

“Tarbiya fanini o'qitish metodikasi” fanini o'zlashtirgan bakalavr talaba quyidagilar bo'yicha nazariy va amaliy tasavvurlarga ega bo'lmog'i lozim:

- fanning asosiy maqsadi va tushunchalari;
- ta'lim tizimidagi islohotlari va o'quvchi shaxsini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalalari;
- milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari;
- ma'naviy qadriyatlar, ta'lim-tarbiyaning omili;
- shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati;
- intellektual salohiyatli, o'z mustqil hayotiy pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish;
- ta'lim-tarbiya ishlarni «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirgan xolda o'tkazish;

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, seminar-trening shaklida, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu fan bo'yicha *kurs ishi* tayyorlash o'quv dasturida nazarda tutilmagan

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Tarbiya” fani o'qituvchisi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati
 2. Sharq mutafakkirlari me'rosining farzand kamolotida tutgan o'rni.
 3. Pedagogik odob-axloq o'quvchi xulq madaniyatini shakllantirishning omillari sifatida.
 4. “Pedagog-o'quvchi”, “Pedagog-o'quvchilar jamoasi”, “Pedagog- raxbariyat”, “Pedagog va jamoatchilik”, “Pedagog va o'quvchilarning ota-onalari” kabi tizimi doirasida tashkil etilgan muloqot madaniyati.
 5. “Tarbiya” darslarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish
 6. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarining ahamiyati
 7. Tarbiya usullari va shakllari.
 8. Tarbiya texnologiyalari
 9. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish usullari
 10. Tarbiya tizimida innovatsiyalar
 11. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahoratning o'mi
 12. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati
 13. Shaxsning oila muhitida va jamiyatda shakllanishi
 14. Noan'anaviy dars mashg'ulotlarini tashkil etish usullari
- “Tarbiya fanini o'qitish metodikasi” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini prezentatsiya va video matnlar tayyorlash, fundamental asarlarni taxlil etish, loyixa ishi, pedagogik keyslarni yechish va boshqa shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari **Asosiy adabiyotlar**

1. “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-son qarori
<https://regulation.gov.uz/uz/document/11181>
2. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T: 2003y. O'quv qo'llanma.
3. Азизхаджаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие. 2005

7-mavzu. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va ta'lim muassasi hamkorligi

Oila ilk tarbiya o'chog'i sifatida. O'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi O'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg'usini tarkib toptirishda oila va ta'lim muassasining o'zaro samarali munosabatlari. O'sib kelayotgan avlod tarbiyasida ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo'lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirish.

8-mavzu. Shaxsni jamoada tarbiyalash usul va vositali

Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoa va uning turlari. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoani tashkil etish usullari. O'quvchilar jamoasi o'ziga xos xususiyatlari. Jamoa orkali yosh avlodda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo kabi fazilatlarni shakllantirish usullari. Jamoani pedagogik boshqarish.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarbiya jarayoni va uning tasnifi. Tarbiyaga zamonaviy yondashuv.
2. Tarbiya tizimini psixofiziologik xususiyatlari.
3. Huquqiy tarbiya berishda didaktik tamoillar, metodlar va vositalar. Tarbiya darslarini loyixalash.
4. Sharq allomalari asarlarida tarbiya masalalari.
5. Tarbiya texnologiyalari. Tarbiya fanini o'qitishda seminar-treninglarni tashkil etish.
6. O'quvchi shaxsi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish; bag'rikenglik (tolerantlik) munosabatlari; vatanparvarlik, elkarparvarlik, saxiylik, sabr-qanoat fazilatlari; mustaqil fikrlash, kabi xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi.
7. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida oila, maxalla, ta'lim muassasalari, din, urf-odatlarining o'rni.
8. Jamoani tashkil etish metodikasi. Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari.
9. O'qituvchi madaniyatining o'quvchi shaxsi rivojlanishidagi ahamiyati.

-amaliyotda o'qitish xamda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

amaliyotda o'qitish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo'llash, ma'lum vaziyatlarda ulardan to'g'ri foydalana olish;

dars va tarbiyaviy tadbirlarda o'quvchilarning jamoadagi faoliyati va muloqotini samarali boshqara olish;

ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, SHarq va g'arbning ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalangan xolda tashkil etish;

o'quvchilar jamoasini o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'g'ri bajarilishini tashkil etish;

o'quvchilar faoliyati va hulqini rag'batlantirib borish;

pedagogik vaziyatlar, ta'lim va tarbiya natijalarini taxlil eta olish;

guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta'lim, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o'z-o'zini boshqarishni tashkil etishni ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Tarbiya darslarida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili mazmun-mohiyati

1-mavzu. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" ta'lim predmeti va o'quv fani sifatida

"Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va ularga nisbatan bulgan munosabatining o'ziga xosligi. Sharq mutafakkirlarning tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" predmetini o'rganishda pedagogik, psixologik bilimlarning ahamiyati. "Tarbiya" predmetini o'qitishda yoshga bog'liq psixofiziologik xususiyatlar. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" umumiy ta'lim metodikasining komponenti sifatida. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" predmetda nazariya va amaliyotning umumiy birikmasi. "Tarbiya" fanining maktab fanlari orasidagi o'rni.

Tarbiya tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar. Uzluksiz ta'lim tizimiga «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish zaruriyati. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanining o'ziga xosligidan kelib chiqqan xolda, uning dolzarbligi, maqsad va vazifalari. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi"ning predmeti, tarkibi, mazmuni. O'quvchi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning ahamiyati.

2-mavzu. "Tarbiya" darslarini tashkil etishning ta'limiy asoslari

Tarbiya va ta'lim nazariyasi. "Tarbiya" fanida ta'lim shakllari, ularning turlari. "Tarbiya" fani mashg'ulotlarini tashkil etish. Zamonaviy maktablarda tarbiya

darslari, turlari, tuzilishi. Mashg'ulotlarga tayyorlanish metodikasi. "Tarbiya" fani o'qitish tamoyillari, maqsadi, usullari va vositalari."

O'quv –tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. O'quv –tarbiyaviy vaziyatning turlari va ularni tashkil kilish shakllari. O'quv –tarbiyaviy vaziyatning vujudga kelish va namoyon bulish shakllari. Muvaffaqiyat vaziyatlarini modellashtirish. O'quv –tarbiyaviy vaziyatlar taxlilining mazmuni. Tarbiyaning samarali, axamiyatli, protsessial jixatlarini pedagogik maqsadlar taksanomiyasida aks etishi. Tarbiya fanida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi. Ta'lim texnologiyalarining klassifikatsiyasi. An'anaviy ta'lim texnologiyalari. Ta'limiy munozaralar texnologiyasi. Loyixa texnologiyalari. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Ta'limiy treninglar.

Tarbiya jarayoni diagnostikasi, uning shaxsga uyulnaltiriganligi. Baholash va baho. Tarbiya fani jarayonida ta'limiy nazoratning - qaytar aloqani ta'minlovchi, ta'lim natijasini ko'rsatuvchi muhim komponenti sifatida. Qaytar aloqa turlari: tashqi (o'qituvchi nazorati), ichki (o'z-o'zini nazorat qilish). Ta'limiy nazorat vazifalari, turlari, metod va shakllari. Tarbiya fanida pedagogik va psixologik diagnostika.

2-Modul. Tarbiya berish san'ati va texnologiyasi

3-mavzu. Tarbiya fani jarayonida o'quvchilar o'z huquqlarini himoya qilishga va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga o'rgatish

Tarbiya fani orqali o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. O'z mamlakati va uning tarixi va madaniyati bilan g'ururlanish xissini tarkib toptirish; to'g'ri maqsadni tanlay olish va uni og'ishmay amalga oshirish; faqat o'z oilasining emas, balki davlatining taqdiriga daxldorlik xissi; o'zida davlat qonunlariga hurmatni tarkib toptirish va boshqalar.

Mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining boy merosi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va demokratik mamlakatlar tajribasi. O'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'zbekistonda BMTning "Bola huquqlari haqidagi konvensiyasi" ning bajarilishini tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar mazmuni. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida bolalar huquqlarining aks etishi. Ijtimoiy hayotda bolalar amal qilishlari lozim bo'lgan qoidalar va ularning burchlari.

4-mavzu. Muqaddas kitoblar va sharq allomalari ma'naviy merosining barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati

Dunyo dinlarining ko'p asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati. SHarq mutafakkirlarning tarbiya soxasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari. Muqaddas kitoblar ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida. Dunyo dinlarining terrorizm, ekstremizmga qarshi pozitsiyasi. Bag'rikenglik, insoniylik, xallolik kabi axloqiy sifatlarni shakllanishida milliy qadriyatlar va urf-odatlarining o'rni. Uzlusiz ta'lim tizimida muntazam diniy ta'lim-tarbiyaning berib borilishi buzg'unchi yot g'oyalarga qarshi eng samarali vosita sifatida.

5-mavzu. Sharqshunos mutaxassislarni "Tarbiya" fanini o'qitishga tayyorlash

Estetik, iqtisodiy, ekologik, ma'naviy, madaniy tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda kompleks yondoshuv. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Pedagogik majburiyat, burch. Ilmiy pedagogik ma'lumotlarni qo'llash. O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda psixologik-pedagogik nazariyalarning ahamiyati. Ilmiy pedagogik ma'lumotlarni qo'llash. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash mahoratni shakllantirishning asosiy sharti sifatida. Pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyaviy usullarning o'rni va ahamiyati.

Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, unga qo'yiladigan talablar. Pedagogik muloqot. Kommunikativlik. O'qituvchi va o'quvchining pedagogik munosabatlari. Munosabatning turlari. O'qituvchining madaniyati. "Pedagog-o'quvchi", "Pedagog-o'quvchilar jamoasi", "Pedagog-maktab rahbariyati", "Pedagog va jamoatchilik", "Pedagog va o'quvchilarning ota-onalari" kabi tizim doirasida tashkil etilgan muloqot madaniyati. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari. Muloqot jarayonida tashabbusni boshqarish.

3-Modul. Ijtimoiy fuqarolik institutlari va ular bilan olib boriladigan ishlar

6-mavzu. Tarbiya darslari orqali oilaviy munosabatlarning inson hayotidagi muhim o'rnini belgilash masalalari

Oila – milliy qadriyatning ajralmas qismi sifatida. Oila yoshlarning ijtimoiy tajriba orttirish maskani. Bolalar va o'smirlarning oilaviy munosabatlar doirasidagi burch va vazifalari hamda huquqlari.